

**SCIENCE
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

 Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzARB muammolari

Jild 3, Son 6/s

2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ S/6 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфизилиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирнов Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа оқтори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаси хузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент аҳборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази; Тайланова Шоҳида Зайнине вна – педагогика фанлари доктори, доцент.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Ижтимоий-туманитар фанларнинг
долзарб муаммолари** электрон журнали
1368-сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
масъулияти чекланган жамият.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўйими психологик хизмат бошлиги.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насридин Атакуллович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com

Телеграм канал:

https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Мамаражабов Бобир Нормүмин ўғли</i> САУДИЯ АРАБИСТОНИДАГИ ЎЗБЕК МУҲОЖИРЛАРИ ТАРИХИ: МУВАФФАҚИЯТЛИ АССИМИЛЯЦИЯ ВА ЙЎҚОТИЛГАН МИЛЛИЙ ИДЕНТИКЛИК	8-17
<i>Хайдаров Абдулҳоди Ахмадали ўғли</i> XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИДА ФАРҒОНА ВИЛОЯТИДА БОҒДОРЧИЛИК ВА ТОМОРҶАЧИЛИКДАГИ ЎЗГАРИШЛАР	18-22
<i>Назаров Азизбек Ёқубжонович</i> ТУРКИСТОН ГЕНЕРАЛ-ГУБЕРНАТОРЛИГИДА ИЛМИЙ ЖАМИЯТЛАР: ТАРИХШУНОСЛИК ТАҲЛИЛИ	23-31
<i>Abdulloyev Jamshed Izzatulloyevich</i> MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARIDA CHEGARA VA SUV MUAMMOLARINING VUJUDGA KELISH ASPEKTLARI VA BUGUNGI RIVOJLANISH BOSQICHI	32-36
<i>Пасилов Баҳодир Абдуллаевич</i> ЎЗБЕКИСТОН ССРДА СОВЕТ ИҚТИСОДИЁТИ АСОСЛАРИ ШАКЛЛАНИШИНинг АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ (1917-1937 йй.)	37-41
<i>Ismailov G'afurjon Xasanovich</i> TURKIYADAGI O'ZBEK TEKKE (TAKIYA)LARIDAN BIRI "SULTONTEPA TEKKESI" MUSOFIRLAR UCHUN TUTGAN O'RNI	42-46
<i>Raxmatulloyev Murodjon Xikmatulloyevich</i> BUXORO VILOYATIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHGA OID ISLOHOTLAR	47-50
<i>Elmurodova Nilufar Baxtiyorovna</i> SHARQ VA G'ARB UYG'ONISH DAVRI MADANIYATI: QIYOSIY T AHLIL	51-55
<i>Нафиддинова Хосият Равшановна</i> БУХОРО ВОҲАСИ АҲОЛИСИ ОИЛАВИЙ МАРОСИМЛАРИ ТАРИХИГА ДОИР МАЪЛУМОТЛАР	56-60

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Zhang Hongzhi, Wu Bo</i> RUMOR RESILIENCE: HOW BUSINESSES ECONOMICALLY RESPOND TO STOCHASTIC RUMOR SPREAD	61-66
<i>Ibrayimova Dilnoza Abdisheripovna</i> MIN TAQADA OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI ONLINE SAVDO MARKETINGINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	67-72
<i>Nayimov Shoxruh</i> PROBLEMS OF FORMATION AND MANAGEMENT OF COLLATERAL PORTFOLIO OF A COMMERCIAL BANK	73-79

Maxkamov Navruzjon Tuxtamishovich

ISSUES OF APPLICATION OF QUALITY MANAGEMENT IN THE SOCIO-ECONOMIC
DEVELOPMENT OF ENTERPRISES AND ORGANIZATIONS FOR THE PURPOSES OF THE
DEVELOPMENT STRATEGY OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN 80-88

Rahmatullaev Bezhzod Rahmatullaevich

ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ УСТУВОР
МАСАЛАЛАРИ 89-95

Abdullayeva Zamira Muxtarovna

МЕҲНАТ BOZORI TALABLARIGA OLIY TA'LIM XIZMATLARI MODELLARINI
MOSLASHTIRISH 96-102

Imomov Xolmurod Norkulovich, Sharipov Tulkin Saidakhmedovich

ИҚТИСОДИЁТНИНГ ТРАНСФОРМАЦИЯЛАШИШИ ШАРОИТИДА ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ
ШЕРИКЧИЛИГИНИНГ ШАКЛЛАРИ, МОДЕЛЛАРИ ВА МЕХАНИЗМЛАРИ 103-114

Erqashov Akmadzhon Mahmudjon yfli

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ФАОЛИЯТИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ РИСКЛАРНИ АНИҚЛАШ ВА
БОШҚАРИШ МЕТОДОЛОГИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ 115-122

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ

Imomova Nozimaxon Avazxonovna

JAMIyat FAROVONLIGI TUSHUNCHASI VA UNING O'ZIGA XOS IJTIMOIY-FALSAFIY
XUSUSIYATLARI 123-129

Qodirov Davronbek Hoshimovich

ABULQOSIM QUSHAYRIY VA UNING ILMIY FAOLIYATI 130-133

Jabborova Saodat Sattorovna

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING MA'NAVIY SALOHIYATNI YUKSALTIRISHDA QO'SHGAN
HISSASI 134-142

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Tuxtasinova Mahliyoxon Shavkatjon qizi

L.Z.BUDAGOV LUG'ATIDA ESKI O'ZBEKCHA SO'ZLARNING EKVIVALENTLAR YORDAMIDA
IZOHLANISHI 143-149

Narmuratov Zayniddin Radjabovich

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA TA'LIM VA ILM MAZMUNLI FRAZEMALARDА EKVIVALENTLIK
MASALASI 150-154

Urazaliyeva Mavluda Yangiboyevna

UZBEKCORPUS.UZ PLATORMASIDA MORFOLOGIK TAHLIL INTERFEYSI VA DASTURIY
TA'MINOTI 155-160

Mirzayeva Yelena Sa'dullaevna

O'ZBEK MENTALITETI VA AXBOROTNI IDROK ETISH 161-166

Alimjanova Shohsanam Azamat qizi

INGLIZ TILIDAGI KO'P MA'NOLI IBORALARNI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH

USULLARI	167-171
<i>Iskandarova Shamsiyabonu Ulug'jonovna</i> BADIY ADABIYOTDA MUALLIF VA TARIXIY QAHRAMON O'RTASIDAGI G'OYAVIY BOG'LIQLIK MASALASI (Laila Lalaming "Mavrning hisoboti" asari tahlili asosida)	172-176
<i>Hamroqulova Marjona Nabijon qizi</i> “МАНБУБ UL-QULUB” ASARIDAGI FRAZEMALAR LARNING SEMANTIK-USLUBIY XUSUSIYATLARI	177-181

12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР

<i>Zulfiqarov Sherzod Xurramovich</i> ҚОНУНЧИЛИК ПАЛАТАСИ ҚЎМИТА ВА КОМИССИЯЛАРИДА ДЕПУТАТЛАР FAOLIYТИНИ ЯНАДА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ	182-191
<i>Talibaev Umidjon Shergaziyevich</i> ОСОБЕННОСТИ ПРИВЛЕЧЕНИЯ К АДМИНИСТРАТИВНОЙ ОТВЕТСТВЕННОСТИ ЗА ПРАВОНАРУШЕНИЯ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИИ.	192-199

13.00.00 - ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

<i>Iminakhunova Iroda Huseynovna</i> THE MOST IMPORTANT REQUIREMENTS THAT ENSURE EFFECTIVE PEDAGOGICAL CONTROL OF STUDENTS' SELF-EDUCATIONAL ACTIVITIES	200-206
<i>Usmanaliev Khusniddin</i> INTERCULTURAL COMPETENCE IN THE TEACHING PROCESSOF A FOREIGN LANGUAGE	207-219
<i>Madaminov Uktam Ataxanovich</i> ELEKTRON TA'LIM MUHITIDA FANLARNI MOBIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH METODIKASI	220-224
<i>Yuldasheva Dilfuza Qodirovna</i> TURIZM YO'NALISHI TALABALARIGA INGLIZ TILIDA SOHAVIY LEKSIKANI O'RGATISH USULLARI	225-229
<i>Tohirova Shohsanam Yunusovna</i> THE IMPORTANCE OF CASE TECHNOLOGY IN PRACTICAL ENGLISH CLASSES IN NON-PHILOLOGICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS	230-236
<i>Nuriddinova Muyassar Muhiddinovna</i> ORGANIZING PHYSICAL EDUCATIONAL EVENTS WITH PRESCHOOL CHILDREN	237-242
<i>Raxmatova Mexrinoz Majitovna</i> YOSHLAR MA'NAVIY SALOHIYATINI YUKSALTIRISHDA INNOVATION TARG'IBOT TEXNOLOGIYALARINING SAMARADORLIGI	243-247
<i>Sheraliyev Odiljon</i> TALABALARNING DIGITAL KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	248-254

07.00.00 –Тарих фанлари

Elmurodova Nilufar Baxtiyorovna
Buxoro Innovatsion tibbiyot instituti tarix fani o'qituvchisi

SHARQ VA G'ARB UYG'ONISH DAVRI MADANIYATI: QIYOSIY TAHLIL

Annotatsiya. Ushbu maqolada Italiya uyg'onish davri madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari, g'arb renesansi kurtaklarining sharq uyg'onishi asosida vujudga kelgani, tarixiylik tamoyili asosida tarixiy jarayonlarida ilm fanning rivojlanib borish sabablari, ixtirolari, yutuq va muammolari hamda istiqbollari olib beriladi. Shuningdek, o'rta asr tarix fani rivoji hamda Sharq uyg'onish davri madaniyati bilan o'xshash va bog'liq tomonlari tahlil qilinib, o'rta asr olimlarining ilmiy faolyati haqida fikr mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Italiya, uyg'onish, Florensiya, "Florensiya tarixi", hukmdor, davlat boshqaruvi, shahar, tiraniya, "Ispaniyadan maktublar", davlat lavozim, renesans, Sharq renesansi, traktad, siyosiy tartib, cherkov, kutubxona, madrasa, hukmron, gumanizm, ixtiro, "Jakonda", "Bayt-ul hikma", musavvir, "siyosat maktabi", Bag'dod, kapitalizm, Milan.

Elmurodova Nilufar Bakhtiyorovna
History teacher at Bukhara Institute of Innovative Medicine

EASTERN AND WESTERN RENAISSANCE CULTURE: A COMPARATIVE ANALYSIS

Abstract. This article reveals the specific features of the culture of the Italian Renaissance, the emergence of the buds of the Western Renaissance on the basis of the Eastern Renaissance, the reasons for the development of science in historical processes based on the principle of historicity, inventions, achievements and problems, as well as prospects. In addition, the development of the science of history in the Middle Ages and the similar and related aspects with the culture of the Eastern Renaissance period were analyzed, and opinions were expressed about the scientific activity of the scientists of the Middle Ages.

Key words: Italy, Renaissance, Florence, "History of Florence", ruler, government, city, tyranny, "Letters from Spain", public office, Renaissance, Eastern Renaissance, treatise, political order, church, library, madrasa, ruler, humanism, invention, "Jakonda", "Bait-ul Hikma", artist, "school of politics", Baghdad, capitalism, Milan.

Эльмуродова Нилуфар Бахтеровна
Преподаватель истории
Бухарского института инновационной медицины

КУЛЬТУРА ВОСТОЧНОГО И ЗАПАДНОГО ВОЗРОЖДЕНИЯ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

Аннотация. В данной статье рассматриваются специфические особенности культуры итальянского Возрождения, возникновение зародившей западного Возрождения на основе восточного Возрождения, причины развития науки в исторических процессах, основанных на принципе историчности, раскрываются достижения и проблемы, перспективы науки. А также, анализируется развитие науки «истории» в средние века, а также сходные и родственные аспекты с культурой Восточного Возрождения, и комментируется научная деятельность средневековых ученых.

Ключевые слова: Италия, Возрождение, Флоренция, «История Флоренции», правитель,

правительство, город, тирания, «Письма из Испании», государственная должность, Возрождение, Восточное Возрождение, трактат, политический порядок, церковь, библиотека, медресе, правитель, гуманизм, изобретение, «Джаконда», «Бейт-аль Хикма (Дом Мудрости)», художник, «политическая школа», Багдад, капитализм, Милан.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SP1342V3I6/SY2023N08>

Kirish. Jahon ilm-fanining rivojlanishiga ulkan hissa qo'shgan o'tmishdagi allomalarimizning faoliyatini o'rganish hamda ular qoldirgan benazir ilmiy merosning ahamiyatini chuqur tadqiq etish, yurt madaniy-ilmiy tarixini yanada teranroq o'zlashtirishda, milliy mafkurani shakllantirishda, binobarin, xalqning ma'naviy salohiyatini yuksaltirishda muhim o'rinni tutadi. Bundan tashqari, bu kabi tadqiqotlar xalqaro ilmiy aloqalar tarixshunosligi qolaversa, manbashunosligi nuqtai nazaridan ham asosiy va zaruriy yo'naliishlardan sanaladi.

Mustaqillikdan so'ng nafaqat yurtimiz tarixi balki, chet davlatlarning tarixi va ulardagi ijtimoiy-iqtisodiy va boshqa jarayonlarni keng kuzatish va ilmiy tahlil qilish imkonini tug'ildi. Ayniqsa, jahon tarixining yorqin davrlarini to'laroq o'rganish uchun bizda yangi imkoniyatlar paydo bo'ldi. Hududlarning ilk, qadimgi va hatto hozirgi tarixini biz chuqurroq o'rganish imkonimiz tug'ildi. Shu jihatdan san'at tarixini o'rganish dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Chunki bu masalaga qiziqish butun dunyoda eng yuqori darajadagi muammoli masalalardan bo'lib, dunyo taraqqiyotini cho'qqiga ta'bir joiz bo'lsa bugungi kundagi ko'rinishiga uyg'onish davri va uning ijodkor va ixtirochilari sabab bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Adabiyotlar sharhi. Sharq va G'arb uyg'onish davri madaniyatlari tarixi mavzusi bugungi kunga qadar ilmiy jihatdan kam o'rganilgan. Shu sababdan, bu mavzuni tadqiq etishda kutubxonalarda saqlanayotgan turli kitob va qo'lyozmalar asosiy manba vazifasini bajaradi. Qolaversa, davriy matbuot materiallari, hukumat tomonidan qabul qilingan huquqiy-me'yoriy hujjatlar to'plamlarni ham o'z navbatida mavzu mazmunini oydinlashtirishga xizmat qiladigan manbalar sirasiga kiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu ishda G'arb renessansi kurtaklarining Sharq uyg'onishi asnosida vujudga kelgani, ilm fan yutuqlarining mintaqamizga kirib kelishi tarixi xronologik ketma-ketlikda tahlil etiladi. Shuningdek, tarixiylik tamoyili asosida tarixiy jarayonlarda ilm-fanning rivojlanib borish sabablari, ixtiolar, yutuq va muammolari hamda istiqbollari ochib beriladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. O'rta asr Sharq xalqlarining fani va madaniyatidagi taraqqiyotni IX asrda Bag'dodda bunyod etilgan "Bayt ul-hikma" siz tasavvur etish mushkul. "Bayt ul-hikma" o'zbek tilida "Hikmatlar uyi" yoki "Donishmandlik uyi" degan ma'nolarni bildiradi. Ushbu ilmiy maskan - falakiyot, riyoziyot, handasa, falsafa, tabobat, adabiyot va boshqa fan sohalarida izlanishlar olib borilgan ilm dargohi edi.

Dastlab kutubxona sifatida tashkil etilgan "Bayt ul-hikma" bu yerda to'plangan kitoblarni arab tiliga o'girish, tadqiq va tatbiq etish natijasida yirik ilmiy markazga aylandi. Uning atrofida o'z davrining ko'zga ko'ringan olim va tarjimonlari to'planib, ijod etishgan. Aytish kerakki, olimlar ichida Movarounnahr va xurosonliklar ko'pchilikni tashkil etgan.

Ushbu markazda yunon, hind, fors va boshqa tillardagi ko'plab nodir asarlarning to'plangani, ular ichida eng noyoblari arab tiliga o'girilgani hamda muomalaga kiritilishi, fundamental asarlarni yaratgan buyuk olimlarning "Bayt ul-hikma"da to'plangani, uni o'rta asrlarning eng mashhur ilmiy dargohiga aylanishiga asos bo'ldi.[2:35.]

O'rta asrlardan kishilik jamiyatini uyg'otgan davr O'rta Osiyo ta'sirida rivojlangan Sharqning Yevropani qayta uyg'otishi bo'ldi.[7:5.] Ushbu davr haqida fikr yuritilganda bir necha Yevropa davlatlarida vujudga kelgan taraqqiyotning bosqichma-bosqich amalga oshirishi xilma-xil hududlarda xilma-xil kechgan hisoblanadi. Chunki, Yevropaning janubi shimolga nisbatan ancha ilgari savdo-madaniy aloqalarga tortilgan edi. Ayniqsa, janubdan o'tgan dengiz savdo yo'llari ushbu masalada asosiy rol o'ynadi. Shimolda sharq bilan bevosita aloqa qilish imkon bo'limgani uchun taraqqiyot bir necha asr so'ng janub ta'sirida amalga oshdi. Janubdagи hududlardan biri bu shubhasiz Italiya hududi hisoblanadi. Italiya qadimdan sharq bilan savdoda muhim ahamiyat kasb etib, imperiya davridan boshlab madaniyat markaziga aylandi. G'arbiy Rim imperiyasi qulaganidan so'ng esa uning merosi yo'q qilindi. Ammo, baribir janubiy savdo yo'llari bu hududni qayta uyg'onishiga keng yo'l ochib berdi.

Italiyadagi uyg'onish davri mutafakkirlari hayoti eng chigal tarixiy muammolardan biri hisoblanadi. Chunki ushbu olimlarning hayoti to'la yoritilmagan. Yoritilganlari esa to'liq emas. Leonardo da Vinci shunday tarixiy shaxslardan biri bo'lib, uning hayoti haqida juda ko'plab rivoyatlar bugungi kungacha yetib kelgan. Bundan tashqari o'sha davr tarixchi va muarixlarning qo'lyozmalari hozirgacha asosiy shu davr qo'llanmasi bo'lib kelmoqda. Leonardoning hayotini o'rganish g'arbda eng asosiy muammolardan biri hisoblanib, jumboqli savollar, uning asarlariga falsafiy topishmoqli qarash hamon davom etmoqda. Leonardo g'arbning buyuk olimi, ixtirochisi, musavviri, haykaltaroshi, qo'yinki uning qirralari nihoyatda ko'pdir. Shu qirralar har galgi tadqiqotda o'ziga xos ravishda ochib borilmoqda.

So'ngi yillarda G'arb davlatlari bilan ayniqsa tarixan boy Italiya bilan madaniy aloqalar kuchayib bormoqda. Zero Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev "Jahon mamlakatlar bilan barcha sohalarda o'zaro do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik ruhidagi munosabatlarni mazmun va sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishimiz zarur" - deb bejizga aytmagandilar.[1:]

Feodal jamiyat qo'ynida kapitalistik munosabatlarning tarkib topishi G'arbiy Yevropa hayotida muhim o'zgarishlarga olib keldi. Din o'z obro'sini yo'qota bordi, mayda hunarmandchilikdan manufakturaga o'tish, shaharlarning tezlik bilan kengayib, rivojlanib borishi, yangi qit'alarning ochilishi va savdo-sotiqning rivojlanishi ijtimoiy hayot qiyofasini ham, odamlarning hayotga, voqelikka bo'lgan munosabatini ham o'zgartira boshladi.[4:34.]

Bu davrga kelib, "qirol hokimiyyati shahar aholisiga suyanib, feodal dvoryanlarning qudratini sindirib tashladi va yirik-yirik, aslida millatlarga asoslangan monarxiyalar tuzdi, bu monarxiyalarda hozirgi zamon Yevropa millatlari va hozirgi zamon burjua jamiyat Taraqqiy eta boshladi". Ana shu taraqqiyot jarayonida yangi dunyoviy san'at va madaniyat kamol topdi. Kitob bosishning vujudga kelishi adabiy va ilmiy asarlarni keng tarqatish imkoniyatini yaratdi. Mamlakatlar orasidagi yaqin munosabatlar esa badiiy hayotdagi yangiliklarni tezda o'zlashtirish imkonini tug'dirdi.[8:6.]

O'z taraqqiyotini XV-XVI asrlarda boshidan kechirgan bu yangi madaniyat tarixda "uyg'onish" deb nom oldi. Bu iborani italiyalik rassom va san'atshunos Jorj Vazari Italiyada san'at uzoq o'rta asrdan so'ng yana qaytadan "uyg'onanligi" sababli ishlatgan va asosan, Jotto ijodiga nisbatan qo'llangan edi. Keyinchalik esa, bu keng mazmun kasb etib, Italiyada, so'ngra Yevropaning boshqa mamlakatlarida vujudga kelgan, feodalizm asridan farq qiladigan san'atni ta'riflash uchun qo'llanila boshlandi.[4:3.]

Uyg'onish davri madaniyati antik dunyo madaniyatidan ta'sirlandi. Uning yodgorliklarini qunt bilan o'rgandi (antik dunyo yodgorliklarining Italiyada mo'lligi bunga ho'l keldi. Lekin bu davr ijodkorlari uning quliga aylanmadilar. Aksincha, undan o'z fikr, tuyg'u tushunchalarini ta'riflashda foydalandilar. Real voqelikka, go'zallikka qiziqish davr taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Hayot real hodisa deb tan olindi. San'atkorlar voqelikni real tasvirlashda yangi qonun-qoidalarni izlay boshladilar. Perspektiva, rangshunoslik, yorug'-soya nazariyasi, anatomiya borasida katta yutuqlar qo'lga kiritildi. Me'morlik va amaliy-dekorativ san'at yangi tendensiyalarning shakllanishiga xizmat qildi, jumladan, me'morlar qadimgi an'analarni o'zlashtirib, uni yangi mazmun bilan boyitdilar. Shu bilan birga, me'morlikning yangi konstruksiyalarini vujudga keltirdilar, ko'p qavatli uylar, yangi qiyofadagi ijtimoiy binolar qad ko'tardi. Binoning tashqi va ichki tomonlarini bezash, kenglikni tashkil etish borasida ham qator yutuqlar qo'lga kiritildiki, ular keyingi Yevropa san'ati taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.[5:57.]

Italiyaning Sharq va G'arb orasidagi muhim savdo iyulida joylashishi unda kapitalistik munosabatlarning juda erta shakllanishiga olib keldi. Savdo-sotiqning rivojlanishi, o'zga yurtlar bilan aloqasining intensivligi hunarmandchilikning rivojlanishiga zamin yaratdi. Feodal munosabatlarning zaifligi esa bu erda yangi siyosiy tartibni shahar-respublika tartibining paydo bo'lishiga va Italiyaning Yevropada birinchi bo'lib kapitalistik mamlakatga aylanishiga imkon berdi. Ijtimoiy hayotda sodir bo'lgan bu xususiyat san'at va madaniyatda o'z ifodasini topdi. Bu o'zgarish savdo va ishlab chiqarish rivojlangan O'rta Italiyada joylashgan Florensiya, Piza, Sienada hamda Shimoliy qismidagi Genuya, Milan, ayniqsa, savdogar va bankirlar respublikasi bo'lgan Venetsiyada juda sezilarli bo'ldi.[6:73.]

Ko'p jihatdan bugungi kundagi ixtiolar o'rta asr "Uyg'onish davri"ning mahsulidir. Chunki, bu davrda Leonardo da Vinchidek mutafakkir olimlar ijod qilganlarki, ular birgina rassomchilik va haykaltaroshlik bilan cheklanib qolmaganlar. Barcha sohalarni qamrab olgan ijodiy ishlari quruvchilik, mexanika, akvolangistika kabi o'nlab sohalarga keskin ta'sir o'tkaza olgan. Uning g'oyalari beqiyos hamda juda o'rinnli edi.

Hatto bugungi kunda uning suratlari va eskizlari ham ahamiyatini yo'qotganicha yo'q. Ulardagi falsafiy qarashlar hamda yashirin fikrlarni topish uchun juda ko'plab olimlar harakat qilib ko'rmoqdalar. Birgina "Jakonda" yer yuzi kritik va tarixchilari o'rtasidagi bir necha yuz yillardan beri yagona to'xtamga kelinmayotgan baxt-munozaraga debocha bo'lib berdi. Chunki, undagi teran nigoh va savolga ko'mib tashlovchi detallar talaygina.[3:34.]

Xullas, uyg'onish davri tarixini o'rganar ekanmiz biz juda ko'pgina haqli savollarga ro'baro' kelamiz va ushbu savollarni topishda qator chalkashliklarga o'ralashib qolamiz yoki shubhalarga ko'milamiz. Noaniq fikrlarni keltirib chiqaruvchi qator savollarning sabablari Leonardonning 7 ming chizmalari va rasmlarida pinhonligicha qolmoqda. Uyg'onish davri madaniyatini yanada chuqurroq o'rganib, o'sha davr ilm-fan yutuqlari haqida tegishlicha xulosalarga ega bo'lishimiz mumkin.

Adabiyotlar/Литература/ References:

1. Shavkat Mirziyayevning Oliy Majlisga Murojatnomasi. //Xalq so'zi gazetasi, 25- dekabr 2020- yil.

2. Абдуҳалимов Б.А. Байт ал-ҳикма ва Марказий Осиёлик олимларнинг Бағдоддаги илмий фаолияти. – Т.: Ўзбекистон, 2010.
3. Булгаков П.Г. Ўрта Осиё олимларининг Бағдоддаги фаолияти // Шарқшунослик. ФАШИ, 1990. №-1. -Б.19–28.
4. Джорджо Вазари. 12 Жизнеописаний - royallib.ru С. 3.
5. Гастев А.А. Жизнь замечательных людей. М., 1980. -С.57.
6. Любимов Л. «Искусство Западной Европы», Москва, 1982. -С. 73
7. Муҳаммаджонов. А. Ўзбекистон тарихи. Т.: “Фафур Ғулом”, 2004. -В.5.
8. Об историке Бенедетто Варки см. вступительную статью. М.: -С. 6.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/6 (3) – 2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.**

**Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти**

Таҳририят манзили:
100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:
scienceproblems.uz@gmail.com
Боғланиш учун телефонлар:
(99) 602-09-84 (telegram).